



UDK:413.164=20:943.75(045)

Nargiza SUYAROVA,
Qarshi davlat universiteti dotsenti
E-mail:suyarovanargiza578@gmail

Filologiya fanlari doktori, professor T.Jumayev taqrizi ostida.

INGLIZ VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TERMIN YASALISHI: PRINSIP VA MUAMMOLAR

Аннотация

Termin yasash jarayoni ma'lum bir xalqning o'z tabiati, ichki imkoniyati asosida hosil qilinadi, ikki til qiyoslanayotgan chog'da o'xshash jihatlardan bilan bir qatorda farqli xususiyatlar ham kelib chiqadi. Bu holat ayniqsa, termin yasash usullari va modellarida ko'rinadi. Ingliz tilida ma'lum tushunchaga nom berilayotganda ingliz tilidagi so'zlardan emas, qadimgi yunon, lotin tiliga mansub so'zlardan foydalanilgan. Mazkur terminlar qisqaligi, sodda so'zdan tashkil topgani, sodda aytilishi bilan terminologik tizimda qat'iy o'z o'rnini topgan. O'zbek tilshunoslik terminlari esa o'z ichki imkoniyatlari asosida hamda chet tillaridan termin o'zlashtirish natijasida hosil qilingan.

Kalit so'zlar: Leksikalizatsiya, kalkalash, termin, atama, affiksatsiya, kompozitsiya, tub, yasama, bir tarkibli termin, ko'p tarkibli termin, o'z qatlam, o'zlashma qatlam.

ТЕРМИНОЛОГИЯ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКИСТАНСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ: ПРИНЦИПЫ И ПРОБЛЕМЫ

Аннотация

Процесс терминообразования формируется на основе природы и внутренних возможностей того или иного народа, так что при сравнении двух языков наряду со сходными чертами выявляются и различные черты. Это особенно ярко проявляется в способах и моделях терминообразования. При обозначении того или иного понятия в английском языке использовались слова из древнегреческого и латинского языков, а не из английских. Эти термины, благодаря краткости, простоте слов и произношению, прочно закрепились в терминологической системе. Термины узбекского языка формировались на основе его внутренних возможностей и в результате заимствования терминов из иностранных языков.

Ключевые слова: Лексикализация, аффиксация, исчисление, термин, состав, корень, конструкция, однокомпонентный термин, многокомпонентный термин, собственный слой, слой ассимиляции.

TERMINOLOGY IN ENGLISH AND UZBEKISTAN LINGUISTICS: PRINCIPLES AND PROBLEMS

Annotation

The process of term formation is determined by the linguistic nature and internal potential of a particular nation. Consequently, when two languages are compared, not only similarities but also significant differences can be observed, particularly in the methods and models of term formation. In English, the naming of new concepts has traditionally relied not on native English words but on borrowings from Ancient Greek and Latin. These terms, characterized by their brevity, simple structure, and ease of pronunciation, have secured a stable position within the English terminological system. Uzbek linguistic terminology, however, has evolved through two principal sources. On the one hand, it is based on the internal resources of the language, which provide opportunities for the creation of indigenous terms. On the other hand, it has developed through the adoption of foreign terms, particularly from Russian, Arabic, and Western languages. As a result, the Uzbek terminological system comprises both nationally distinctive terms and internationally recognized ones, reflecting a balance between internal innovation and external influence.

Key words: Lexicalization, calquing, term, terminology, affixation, compounding, root (simple), derived, single-component term, multi-component term, native layer, borrowed layer.

Kirish. Terminologiya qadim-qadimdan boshlab olimlarni o'ylantirib kelayotgan masalalardan biridir. Termin, atama tushunchalarini o'rganish qadimgi antik davr yunon tilshunosligidan boshlangan bo'lsa-da, hali hanuz o'z yechimini kutayotgan masalalar anchagina. Jumladan, dunyo tilshunosligida termin, atama tushunchasi, terminlarning leksik-semantik va struktur tuzilishi, termin hosil qilish usullari, qoliplari, xalqaro termin hosil qilish muammolari, qiyoslanuvchi ikki tilning terminologik sistemasi, prinsiplari, muammolari muhim masalalardan bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiya. Terminologiya to'g'risida mashhur shveysar tilshunos olimi Ferdinand de Sossyurning quyidagi fikrlari ahamiyatga molikdir "Barcha lingvistik konsepsiyalar tabiatning belgilarini va tilning tizimli xususiyatlarini asoslaydi, asosiy g'oyalardan biri so'zlashuv hamda tilning nutqiy faoliyatdagi farqlari sanaladi, qolaversa,

terminologiya o'ziga xos ilmiy fan bo'lib, u tilshunoslik, bilimlar nazariyasi va mantiqdan kelib chiqadi"[1]. Terminlar majmui terminologiya hisoblanib, har bir sohaning o'zigagina xos bo'lgan tushunchalarini birlashtiradi.

O'zbek tilshunosligida terminologiyani tadqiq etish bir asrdan beri davom etyapti, ingliz tilshunosligida esa undan ham uzoqroqqa borib taqaladi. Hozirgi ingliz tilida tilning ichki imkoniyatlari asosida yasalgan terminlar taklif qilinmoqda. O'zbek tilida esa ko'proq o'zlashmalar, ayniqsa, ruscha-baynalmilal terminlar yoki birikmalardan foydalanilmoqda. Ingliz va o'zbek tillaridagi terminlarning xalqaro termin yasash prinsiplariga mosligi, derivatsiyaning samarasi, ichki imkoniyatlar asosida yasalayotgan terminlarning tildagi ifodasi, yuzaga kelgan dubletlik, qolaversa, ingliz va o'zbek tillarida termin yasash usullarining qiyosi muhim vazifalardan biridir[2].

Terminshunos olimlarning fikriga ko'ra termin yasash jarayoni 2 xil bo'ladi:

1. Birlamchi termin yasashi ma'lum hodisa yoki tushunchaga berilgan ta'rif (definitsiya) yoki nomlanish natijasida yuzaga keladi (ya'ni bu jarayon preskriptiv metod orqali amalga oshiriladi).

2. Ikkilamchi termin yasashi esa ikki holat, ya'ni:

a) muayyan termini morfologik, grammatik va fonetik jihatdan o'zlashtirish;

b) biror termin o'rniga tilning ichki imkoniyatlarini ishga solgan holda derivativ usulda yangi termin taklif qilish (ya'ni deskriptiv metod) orqali amalga oshiriladi[3].

Tahlil va natijalar. Termin hosil qilinishining bu ikki usuli biz qiyoslayotgan ingliz va o'zbek tilshunosligining har ikkalasida ham mavjud. Masalan, o'zbek tilida: to'ldiruvchi,

aniqllovchi; morfologiya, sintaksis; ingliz tilshunosligida esa discourse, phoneme; derivation, etymology.

Ingliz tilshunosligi terminologiyasi – bu ingliz tili va umumiy tilshunoslikni o'rganishda qo'llaniladigan maxsus atamalar tizimi. U fonetika, morfologiya, sintaksis, semantika, pragmatika, leksikologiya, sotsiolingvistika, psixolingvistika, tarjima nazariyasi va boshqa tilshunoslik bo'limlarga oid terminlarni o'z ichiga oladi.

O'zbek tilshunosligidagi terminlarni semantik, struktur tahlil qilish asosida terminlar tuzilishiga ko'ra: sodda, yasama, qo'shma va birikmali holda bo'lishiga guvoh bo'lamiz. Bir tarkibli terminlar tarkibiga ko'ra tub, affiksatsiya, kompozitsiya, leksikalizatsiya usulida hosil qilingan turlarga bo'linadi. O'zbek tilidagi bir tarkibli tilshunoslik terminlarini quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin:

1	Tub terminlar	Tovush, asos, o'zak, ot, sifat, morfema, leksema, gap, matn
2	Affiksatsiya	Unli, qo'shimcha, atama, birlik, kesim, to'ldiruvchi
3	Kompozitsiya	Qo'shtirnoq,
4	Leksikalizatsiya	Morfologiya, morfonema

Ingliz tilshunosligidagi terminlar ham tuzilishiga ko'ra sodda, tub, yasama, bir necha tarkibli kabi turlarga bo'lib o'rganiladi.

Ingliz tilshunosligidagi bir tarkibli terminlar:

1	Tub terminlar	Morpheme, Affix, Phoneme, Clause, Phrase, Sentence
2	Affiksatsiya	Register, bystander, nonverbal, rewrite, bilingual
3	Kompozitsiya	Morphophonemics, Morphosyntactic, Postposition, Backchaining
4	Leksikalizatsiya	Wordstock, Modem

Leksikalizatsiya – bu yangi til birliklarining mustaqil leksik birlik (so'z) sifatida til tizimiga kirib, mustahkamlanishi jarayoni. Oddiy qilib aytganda, dastlab birikma, ibora yoki grammatik shakl bo'lib ishlatilgan birlik asta-sekin tayyor so'z sifatida qabul qilina boshlaydi.

Leksikalizatsiyaning asosiy belgilari quyidagilar:

Yangi so'zning shakllanishi – birikma yoki grammatik shakl endi alohida so'z sifatida seziladi.

Ma'nosining yaxlitlashuvi – tarkibiy qismlarining asl ma'nosi yo'qolib, umumiy ma'no mustahkamlanadi.

Lug'at tarkibiga kirishi – yangi birlik lug'atlarda qayd qilina boshlaydi.

O'zbek tilidagi leksikalizatsiya asosida hosil bo'lgan so'zlar: qoraqalpoq (aslida "qora qalpoq", keyinchalik mustaqil etnonim bo'lib qotgan); bosqichma-bosqich (avval so'z birikma, keyinchalik yaxlit birlik sifatida qo'llanmoqda).

Ingliz tilidagi leksikalizatsiya asosida hosil qilingan so'zlarga quyidagilar kiradi:

blackbird (aslida "qora qush", leksikalashib bitta so'z – qush turi nomi bo'lgan).

breakfast (aslida "fastni buzish" → "ertalabki nonushta").

Leksikalizatsiya tilshunoslik terminologiyasida ham qo'llaniladi:

Frazeologizmlar ham ko'pincha leksikalizatsiya jarayonida yuzaga keladi.

Terminlar ham ba'zan kalkalash yoki metaforik asosda yaralib, keyinchalik leksikalashib ketadi.

Ingliz tilshunosligida leksikalizatsiya asosida shakllangan terminlar:

1. Compounding (qo'shma so'z yasash) orqali leksikalizatsiya

Blackboard – aslida black + board, keyinchalik yagona termin.

Greenhouse – green + house → "issiqxona".

Skyscraper – sky + scraper → "osmono'par bino".

Wordstock – word + stock → "lug'at boyligi".

2. Frazeologik birikmalarning leksikalizatsiyasi
Mother tongue – "ona tili" (faza sifatida boshlangan, hozir termin sifatida mustahkamlangan).

World view – "dunyoqarash".

Sound system – "tovush tizimi".

Language family – "til oilasi".

3. Metaforik asosda leksikalashgan terminlar

Root – so'zning ildizi (aslida daraxt ildizi ma'nosidan ko'chib kelgan).

Stem – so'zning asos qismi (o'simlik poyasidan ko'chgan).

Branch – tilshunoslikda "tilning tarmoqlari".

Tree diagram – sintaksisda daraxtsimon chizma.

4. Abbreviatsiya (qisqartma) orqali leksikalizatsiya
NATO, UNESCO, OPEC – qisqartma sifatida boshlangan, keyinchalik so'zga aylangan.

Modem (modulator-demodulator).

Laser (light amplification by stimulated emission of radiation).

5. O'zlashma va kalkalash asosida leksikalashgan terminlar

Loan translation → "kalkalash".

Word formation → "so'z yasalishi".

Code switching → "kod almashish".

Speech act → "nutq akti".

O'zbek tilshunosligidagi ko'p tarkibli terminlar esa ikki tarkibli, uch tarkibli terminlar kabi turlarga bo'linadi.

Ikki tarkibli terminlar: gap markazi, so'z birikmasi, nutqiy akt, jarangli undosh.

Uch tarkibli terminlar: lug'aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi.

Ingliz tilshunoslik terminlari ham tarkibiga ko'ra bir tarkibli va ko'p tarkibli terminlarga bo'linadi. Anaphora, adjective, discourse, ellipsis, grapheme kabi terminlar bir tarkibli bo'lsa, Function words, Free morpheme, Alethic Modality, Conceptual Extendedness kabi terminlar ikki tarkibli, Commissive Illocutionary Point, Conjunctive Illocutionary

Act, Counterfactual Conditional Relation, External Relative Clause, Immediate Imperative Mood kabi misollar uch tarkibli bo'lsa, tilshunoslikka oid Commitment Between Illocutionary Acts, Future-Perfect-In-Past Tense, Given Versus New Information kabi terminlar ko'p tarkiblidir.

O'zbek tilshunosligidagi terminlar lug'aviy tarkibiga ko'ra o'z qatlam va o'zlashma qatlamga oid terminlarga bo'linadi. O'zlashma terminlar ham tarkibiga ko'ra quyidagicha bo'ladi:

a) rus tili va u orqali g'arbiy Yevropa tillaridan o'zlashgan terminlar: semema, leksema, pragmatika, kategoriya.

b) arab tilidan o'zlashgan terminlar: nutq, umumiylik, mohiyat, hodisa, ziddiyat.

d) fors tilidan o'zlashgan terminlar: lison, taqlid, zohiriy, qolip.

e) o'zbek tili asosida yaratilgan terminlar: ot, sifat, son, fe'l, asos, kesim, ega, so'z o'zgartiruvchi qo'shimcha.

f) kalkalar:

Kalkalash usuli bilan termin yasash – bu boshqa til terminlarini so'zma-so'z tarjima qilish orqali yangi termin hosil qilish usulidir. Bu usulda o'z tilimizdagi mavjud so'zlardan foydalanib, chet tilidagi terminning ma'nosi yoki tarkibiy qismlari tarjima qilinadi. Asosiy xususiyatlari:

1. So'zma-so'z tarjima asosida yuzaga keladi.

2. Tilning ichki imkoniyatlarini ishga soladi.

3. O'zlashgan termin tilimizda milliy tus oladi.

4. Ko'pincha fan-texnika va tilshunoslik terminologiyasida qo'llanadi.

Kalkalar struktur tarkibiga ko'ra to'liq kalka (so'z birikmasi) va yarim kalkalarga bo'linadi. Yarim kalkalar:

a) bosh so'zi o'zlashma bo'lgan birikmalar: nutqiy akt, noto'liq oppozitsiya;

b) tobe so'zi o'zlashma bo'lgan birikmalar: paradigmatic munosabat, morfologik shakl;

d) har ikki qismi o'zlashma bo'lgan birikmalar: gradual oppozitsiya, morfologik paradigma kabi turlarga bo'linadi.

Kalkalash (calque, loan translation) – bu boshqa til terminini to'g'ridan to'g'ri tarjima qilish yo'li bilan yangi termin yasash usuli. Ingliz tilshunosligida ham ko'plab

atamalar kalkalash yo'li bilan yuzaga kelgan. Quyida ayrim mashhur misollar keltiriladi: Tilshunoslik doirasida ko'proq ishlatiladigan kalkalar:

Mother tongue ← lotincha lingua materna.

Language family ← nem. Sprachfamilie.

Word-for-word translation ← lotincha verbum pro verbo.

Case study ← lotincha casus studii.

Sound symbolism ← nem. Lautsymbolik.

Language planning ← nem. Sprachplanung.

Inner speech ← ruscha vnutrennyaya rech'.

Ko'rinib turibdiki, ingliz tilidagi terminlarning bir qismi nemis, fransuz, rus va lotin tillaridan kalkalash yo'li bilan hosil qilingan.

Tilshunoslikdagi kalkalangan terminlar:

Phraseology → frazeologiya (qisman kalkalash + o'zlashma)

Word combination → so'z birikmasi

Sound system → tovush tizimi

Language family → til oilasi

Xulosa. Termin yasash jarayoni ma'lum bir xalqning o'z tabiati, ichki imkoniyati asosida hosil qilinadi, ikki til qiyoslanayotgan chog'da o'xshash jihatlar bilan bir qatorda farqli xususiyatlar ham kelib chiqadi. Bu holat ayniqsa, termin yasash usullari va modellarida ko'rinadi. Izlanish jarayonida shunday xulosaga kelindiki, ingliz tilida ma'lum tushunchaga nom berilayotganda ingliz tilidagi so'zlardan emas, qadimgi yunon, lotin tiliga mansub so'zlardan foydalanilgan. Mazkur terminlar qisqaligi, sodda so'zdan tashkil topgani, sodda aytilishi bilan terminologik tizimda qat'iy o'z o'rnini topgan. O'zbek tilshunoslik terminlari esa o'z ichki imkoniyatlari asosida hamda chet tillaridan termin o'zlashtirish natijasida hosil qilingan. Ingliz va o'zbek tilshunoslik terminlari struktur tabiatiga ko'ra sodda, tub, yasama, qo'shma, bir tarkibli, ko'p tarkibli kabi turlarga bo'linsa, o'zlashgan-o'zlashmaganligiga ko'ra o'z qatlam va o'zlashma qatlamga mansub terminlar mavjud. Har ikkala tilshunoslik terminlari tilning ichki so'z yasash imkoniyatlari asosida, umumiste'moldagi so'zga yangi ma'no ottenkasini yuklash asosida, kalkalash, so'z o'zlashtirish, birikma termin yasash orqali hosil qilingan.

ADABIYOTLAR

1. Бушуй Т.А., Сафаров Ш.С. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси илмий нашр. – Тошкент, «Фан», 2007. – Б.191.
2. Mirzaxmedova X.V. Fors va o'zbek tillarida termin yasash prinsiplari va muammolari (ijtimoiy-siyosiy terminlar misolida): Filol. fanlari doktori (DSc)... disser. avtoref. –Buxoro, 2022
3. Mirzaxmedova X.V. Fors va o'zbek tillarida termin yasash prinsiplari va muammolari (ijtimoiy-siyosiy terminlar misolida): Filol. fanlari doktori (DSc)... disser. avtoref. –Buxoro, 2022